

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSİYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSİYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB Olish.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
ANGREN VA YANGI ANGREN IESLARINING KUL-SHLAK AG'DARMALARI TEXNOLOGIK NAMUNALARNING MODDIY TARKIBINI O'RGANISH	189
Almatov Ilxomjon, Xatamov G'ayrat, Jabborov Ergash, Sodiqov Farrux	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIVAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI	195
Bekchanov Faxriddin Atabekovich	



UO'K: 657.1:006.32

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOB METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI

Bekchanov Faxriddin Atabekovich

PhD, Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobi metodologiyasini takomillashtirishning yaxlit tizimi asoslangan. Tizim uch blokdan iborat: analitik poydevor (9031–9039 daromad va 9131–9138 xarajat subschyotlarining juft tuzilmasi, beshta taqsimlash bazasi), tushumni tan olish metodikasi (15-son MHXSning besh bosqichi, paket pasporti va SSP bazasi, mutanosib taqsimlash) hamda xalqaro hisobotga transformatsiya (olti bosqichli algoritm, tuzatishlar reestri, ish varag'i). Bloklarning o'zaro bog'lanishlari va integratsion samarasi ko'rsatilgan: subschyotlar tufayli transformatsiya "qayta hisoblash"dan "muvofiglashtirish"ga aylanib, tuzatishlar va muddat sezilarli darajada qisqaradi. Tizimning to'rt bosqichli joriy etish tartibi asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy natijalar hisobi; subschyotlar tizimi; tushumni tan olish; taqsimlash bazalari; transformatsiya; hisob siyosati; AKT sohasi.

Аннотация: В статье обоснована целостная система совершенствования методологии учета финансовых результатов в сфере информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Предлагаемая система включает три взаимосвязанных блока: аналитическую основу (парная структура субсчетов доходов 9031–9039 и расходов 9131–9138, а также пять баз распределения), методику признания выручки (пятиэтапная модель МСФО (IFRS) 15, паспорт пакетного продукта, база самостоятельной цены продажи (SSP) и пропорциональное распределение) и трансформацию в международную финансовую отчетность (шестиступенчатый алгоритм, реестр корректировок и рабочая таблица). Показаны взаимосвязи между блоками и их интеграционный эффект: благодаря внедрению системы субсчетов процесс трансформации переходит от «пересчета» к «согласованию», что позволяет существенно сократить количество корректировок и сроки подготовки отчетности. Обоснован четырехэтапный порядок внедрения предлагаемой системы.

Ключевые слова: учет финансовых результатов; система субсчетов; признание выручки; базы распределения; трансформация; учетная политика; сфера информационно-коммуникационных технологий (ИКТ).

Abstract: The article substantiates an integrated system for improving the methodology of accounting for financial results in the ICT sector. The system comprises three blocks: an analytical foundation (a paired structure of revenue sub-accounts 9031–9039 and cost sub-accounts 9131–9138, five allocation bases), a revenue recognition methodology (the five steps of IFRS 15, a bundle passport and an SSP database, proportional allocation), and transformation into international reporting (a six-stage algorithm, an adjustments register, a worksheet). The interconnections of the blocks and the integration effect are demonstrated: owing to the sub-accounts, transformation turns from 'recalculation' into 'reconciliation', markedly reducing adjustments and time. A four-stage implementation procedure is substantiated.

Keywords: accounting for financial results; sub-accounts system; revenue recognition; allocation bases; transformation; accounting policy; ICT sector.

KIRISH

AKT sohasi hisob amaliyotining empirik tahlili muammolarning aniq xaritasini berdi: daromadning umumlashgan hisobi, paket tushumini taqsimlashning metodikasizligi, xarajat taqsimoti asoslarining noaniqligi va xalqaro hisobotga transformatsiyaning og'irligi ekspertli baholashda eng yuqori keskinlik ballarini oldi. Sohaning jadal o'sishi — xizmatlar hajmining 2020–2024-yillarda 13,85 trln so'mdan 56,17 trln so'mgacha ko'payishi (Milliy statistika qo'mitasi, 2026) — hamda moliyaviy hisob tizimini xalqaro talablarga muvofiq tubdan takomillashtirish choralari va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi sharoitida ushbu muammolar yechimi kechiktirib bo'lmaz vazifaga aylandi.

Muammolarning muhim xususiyati — ularning zanjirli bog'langanligi: paket taqsimoti analitik kesimsiz

“osmonda osilib” qoladi, tannarx asoslari xarajat kesimisiz o‘lchanmaydi, transformatsiya esa tayyor analitikasiz har yili og‘ir qayta hisoblashga aylanadi. Demak, yechimlar ham alohida “yamoqlar” emas, o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida loyihalaniishi kerak: har bir yechim keyingisi uchun poydevor yaratadigan, birgalikda esa umumiy samara beradigan arxitektura zarur. Aynan shunday tizimli qarash mazkur maqolaning predmetidir.

Maqolaning maqsadi — AKT sohasida moliyaviy natijalar hisobi metodologiyasini takomillashtirishning yaxlit tizimini asoslash: uning bloklarini, o‘zaro bog‘lanishlarini, integratsion samarasini va joriy etish tartibini ko‘rsatish. Vazifalar: tizim arxitekturasini shakllantirish; har bir blokning tayanch yechimlarini umumlashgan holda bayon etish; bloklararo bog‘lanishlarni ochish; integratsion samarani baholash; joriy etishning bosqichli tartibini asoslash. Tadqiqot obyekti — soha korxonalari, jumladan “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi; predmet — moliyaviy natijalar hisobi metodologiyasini tizimli takomillashtirish bilan bog‘liq munosabatlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hisob metodologiyasini takomillashtirishning umumnazariy asoslari milliy adabiyotda yaratilgan: moliyaviy natijalar hisobi va auditning yaxlit tadqiqi (Avlokulov, 2019), moliyaviy hisob-hisobot tizimi (Karimov va boshq., 2018), audit bilan bog‘liqlik (Tulaxodjayeva va boshq., 2018) va xalqaro standartlar talablari (Dusmuratov va boshq., 2020) fundamental manbalarda yoritilgan; aloqa sohasi hisobining tarmoq xususiyatlari klassik ishlarda tadqiq etilgan (Lileeva, 2007). Me‘yoriy imkoniyat tomonidan 21-son BHMS subyektlarga schyotlar rejasi doirasida subschyotlar ochish va hisob siyosatini sohaga moslash huquqini beradi (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2002).

Xalqaro empirika tizimli yondashuv zaruratini quvvatlaydi: 15-son MHXS tatbiqida telekommunikatsiya sektorida oshkor etishga rioya to‘liq emasligi (Boujelben va Kobbi-Fakhfakh, 2020), standartning moliyaviy natijalarga ta’siri (Kobbi-Fakhfakh va Boujelben, 2021; Khersiat, 2021), tan olish siyosatlarining qayta qurilishi (Kabir va Su, 2022; Onie va boshq., 2023) va solishtiruvchanlik samarasi (Lee va Choi, 2024) ko‘rsatilgan; yo‘nalish dinamikasi bibliometrik umumlashirilgan (Bathla va boshq., 2023). Ushbu natijalarning mushtarak xulosasi: standart talablari faqat analitik poydevor, hujjatli institutlar va tartibli transformatsiya birgalikda mavjud bo‘lgandagina amalda bajariladi, ya’ni muammo aynan yaxlitlikda.

Xizmat korxonalari qiymatini baholashga oid tadqiqotlar, jumladan mazkur jurnalda ish (Uralov, 2026), ishonchli, kesimli moliyaviy axborotning qiymat boshqaruvi uchun ahamiyatini ko‘rsatadi. Sharh bo‘shliqni aniqlaydi: adabiyotda alohida yechimlar (subschyotlar g‘oyasi, standart talablari, transformatsiya tamoyillari) mavjud bo‘lsa-da, ular AKT sohasi uchun o‘zaro bog‘langan, integratsion samarasi ko‘rsatilgan va joriy etish tartibi asoslangan yagona tizimga birlashtirilmagan. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tizimli-konstruktiv dizaynda bajarildi: avval amaliyot tahlilidan kelib chiquvchi talablar tizimlashtirildi, so‘ngra uch blokli arxitektura loyihalandi, bloklararo bog‘lanishlar aniqlandi va integratsion samara baholandi. Usullar: tizimli tahlil va sintez, schyotlar tizimini modellashtirish, me‘yoriy-uslubiy tahlil, hisob-kitob misollari (worked examples) hamda monografik kuzatish. Har bir blokning ichki yechimlari batafsil alohida tadqiqotlarda asoslangan; mazkur maqolaning vazifasi — ularni tizim darajasida bog‘lash va umumiy samarani ko‘rsatish.

Tizim ishonchliligi uchta talab bilan ta‘minlanadi: birinchidan, barcha institutlar hujjatli izga ega (mapping, pasport, vedomost, ish varag‘i); ikkinchidan, har bir blok tekshiriladigan nazorat nuqtalari bilan jihozlangan (uchta solishtiruv, besh nazorat nuqtasi, iyerarxiya tengligi); uchinchidan, miqdoriy misollardagi summalar arifmetik jihatdan to‘liq tekshiriluvchan (metodikani ko‘rsatish maqsadida shartli belgilangan). Chegara: soliq oqibatlar va audit metodologiyasi alohida tadqiqot yo‘nalishlaridir — mazkur tizim ular uchun axborot poydevorini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimning umumiy arxitekturasini uch blok va natija zanjiridan iborat (1-rasm). Birinchi blok — analitik poydevor: 9030-schyot tarkibida to‘qqizta daromad subschyoti (9031–9039) va ularga juft ravishda 9130-schyot tarkibida sakkizta xarajat subschyoti (9131–9138) ochiladi; juftlik xizmatlar kesimida yalpi foydani bevosita hisoblash imkonini beradi ($YAF = 903X - 913X$, televideniye bo‘yicha $(9037+9038) - 9137$). Xarajatlar subschyotlarga xarajat drayverlari konsepsiyasidagi beshta baza — trafik hajmi, resurs ulushi, abonentlar soni, quvvat iste‘moli, daromad ulushi — bo‘yicha, mustaqil texnik manbalarga tayanuvchi oylik vedomost orqali taqsimlanadi. Billing bilan integratsiya moslik jadvali (mapping) instituti va “mappingsiz xizmat ishga tushirilmaydi” qoidasi bilan ta‘minlanadi; tizim ishonchliligini oylik uchta solishtiruv nazorati ushlab turadi.



Ikkinchi blok — tushumni tan olish metodikasi: 15-son MHXSning besh bosqichli modeli sohaning paket xizmatlariga moslashtiriladi. Ijro majburiyatlarini ajratish mezonlari, paket pasporti va alohida sotish narxlari (SSP) bazasi institutlari, SSPni aniqlashning to'rt usulli iyerarxiyasi hamda bitim narxini mutanosib taqsimlash formulasi joriy etiladi. Metodika raqamli misollarda isbotlangan: uchlik paketda 300 ming so'm SSPlar nisbatida 150/90/60 bo'lib tegishli subschyotlarga yo'naltiriladi; uskuna bilan bog'langan 12 oylik tarifda 2 400 ming so'mning 960 mingi uskunaga (topshirish paytida, shartnoma aktivi mexanizmi orqali), 1 440 mingi xizmatga (oyiga 120 ming so'mdan) tan olinadi.

Uchinchi blok — transformatsiya: olti bosqichli algoritmi (tayyorlash — qayta guruhlash — tan olish tuzatishlari — baholash tuzatishlari — tekshirish — hisobot), subschyotlar va MHXS moddalarini moslik jadvali, tipik tuzatishlar reestri, ish varag'i va besh nazorat nuqtasi joriy etiladi; ish varag'i misolida moliyaviy natija 6 100 mln so'mdan 6 450 mln so'mgacha aniqlashtiriladi (1-rasm).



Умумий таъомил: ҳар блок мустақил қийматга эга, ammo тўлиқ самара фақат яхлит тизимда эришилади;

барча институтлар ҳисоб сиёсати даражасида, меъёрий ҳужжатларни ўзгартирмасдан жорий этилади

1-rasm. Moliyaviy natijalar hisobi metodologiyasini takomillashtirishning yaxlit tizimi¹

Bloklarning yechimlari, institutlari va samaralari 1-jadvalda umumlashtirilgan: har bir blok amaliyot tahlilida aniqlangan aniq muammoga qaratilgan, hujjatli institut bilan ta'minlangan va audit uchun tayyor dalil manbaini yaratadi. Shu tariqa tizim "muammo — yechim — institut — dalil" to'liq zanjirini quradi (1-jadval).

1-jadval. Tizim bloklari: muammo, yechim, institut va audit dalili²

Blok va hal etiladigan muammo	Tayanch yechim	Hujjatli institut	Audit uchun dalil
Analitik poydevor: umumlashgan daromad, asossiz xarajat taqsimoti	9031–9039 va 9131–9138 juft subschyotlari; beshta taqsimlash bazasi	Mepping; xarajat–baza matritsasi; oylik vedomost	Subschyot aylanmalari; solishtiruv dalolatnomalari
Tan olish: paket tushumining metodikasiz taqsimlanishi	MHXS-15 besh bosqichi; mutanosib taqsimlash formulasi	Paket pasporti; SSP bazasi (to'rt usulli iyerarxiya)	Pasportlar; taqsimot varaqalari
Transformatsiya: qo'lda, izziz, og'ir jarayon	Olti bosqichli algoritmi; tuzatishlar reestri	Moslik jadvali; ish varag'i; versiyalash	Tuzatish varaqalari; nazorat nuqtalari


Tizimning mohiyatini bloklararo bog'lanishlar ochadi. Birinchi bog'lanish: SSPni aniqlashning uchinchi usuli

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2 Manba: muallif ishlanmasi.

— “kutilayotgan xarajat + marja” — aynan 9131–9138 subschyotlari ma’lumotiga tayanadi; demak, xarajat analitikasisiz tan olish metodikasi to’laqonli ishlamaydi. Ikkinchi bog’lanish: paket pasportlari va taqsimot varaqalari transformatsiyaning tan olish tuzatishlari uchun tayyor hujjatli asos beradi — tuzatish “hisoblab chiqarish” emas, mavjud hujjatga tayanish bo’ladi. Uchinchi, hal qiluvchi bog’lanish: daromad va xarajat xizmatlar kesimida, tushum esa pasportlar asosida yuritilsa, transformatsiyaning eng og’ir tuzatishlari hisobning o’zida hal etilgan bo’ladi — transformatsiya “qayta hisoblash”dan “muvoqlashtirish”ga aylanadi. Integratsion samaraning shartli bahosi 2-rasmda keltirilgan: qo’lda tuzatishlar soni 38 tadan 11 tagacha, transformatsiya muddati 20 kundan 6 kungacha qisqarishi mumkin — samara aynan boshlang’ich ma’lumotning tayyorligi hisobiga erishiladi (2-rasm).

Трансформация жараёнига интеграцион самара (шартли баҳо)



2-rasm. Yaxlit tizimning transformatsiya jarayoniga integratsion samarasi³

Tizimni joriy etish to’rt bosqichda, barcha bloklar uchun sinxron amalga oshiriladi: tayyorgarlik bosqichida *mapping*, xarajat–baza matritsasi, dastlabki pasportlar va moslik jadvali loyihalaniib, hisob siyosatiga o’zgartirishlar tasdiqlanadi; parallel yuritish oyida barcha nazorat nuqtalari sinovdan o’tadi; to’liq o’tishda qoldiqlar taqsimlanadi va tizim asosiy rejimga kiradi; monitoring bosqichida solishtiruvlar, 9138 ulushi, SSP dolzarbligi va transformatsiya versiyalari doimiy kuzatuvga olinadi. Kadrlar va axborot tizimlariga talablar mo’tadil: barcha institutlar standart vositalarda yuritiladi, hal qiluvchi omil — bir marta sifatli loyihalash (2-jadval).

2-jadval. Tizimni joriy etishning to’rt bosqichi⁴

Bosqich	Asosiy ishlar	Natija hujjati
1. Tayyorgarlik	Mepping, xarajat–baza matritsasi, pasportlar, moslik jadvali loyihasi	Hisob siyosatiga o’zgartirishlar to’plami
2. Parallel yuritish	Bir oy davomida ikkala tartibda yuritish, nazoratlar sinovi	Sinov hisoboti va tuzatishlar
3. To’liq o’tish	Qoldiqlarni taqsimlash, tizimga to’liq o’tish	O’tish dalolatnomasi
4. Monitoring	Solishtiruvlar, 9138 ulushi, SSP va bazalar dolzarbligi	Oylik monitoring reglamenti

Natijalarning muhokamasi tizimning uch yo’nalishdagi qiymatini ko’rsatadi. Birinchidan, u xalqaro empirikada qayd etilgan rioya va solishtiruvchanlik muammolariga (Boujelben va Kobbi-Fakhfakh, 2020; Lee va Choi, 2024) tizimli javob beradi: standart talablari hujjatli institutlar zanjiriga “yerga tushiriladi”. Ikkinchidan, boshqaruv sifat jihatidan yangi axborotga ega bo’ladi: xizmatlar kesimidagi tushum, tannarx va marja — narx siyosati, portfel qarorlari va korxona qiymatini boshqarish (Uralov, 2026) uchun bevosita ozuqa. Uchinchidan, tizim audit uchun ko’prik vazifasini bajaradi: subschyot aylanmalari, vedomostlar, pasportlar va ish varaqalari — bular auditorlik dalillarining tayyor, to’liq va takrorlanuvchan manbalaridir; keyingi tadqiqot bosqichi — aynan shu poydevorga tayanuvchi soha audit metodologiyasi. Barcha institutlar hisob siyosati darajasida, me’yoriy

³ Manba: muallif ishlanmasi.

⁴ Manba: muallif ishlanmasi.



hujjatlarni o'zgartirmasdan joriy etilishi tizimning amaliy tatbiq etiluvchanligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, hisob amaliyotining zanjirli muammolari faqat yaxlit tizim bilan yechiladi — alohida “yamoqlar” samara bermaydi; ikkinchidan, uch blokli arxitektura (analitik poydevor — tan olish metodikasi — transformatsiya) muammolar xaritasini to'liq qamraydi va har bir blokni hujjatli institut hamda nazorat nuqtalari bilan ta'minlaydi; uchinchidan, bloklararo bog'lanishlar (SSPning xarajat ma'lumotiga tayanishi, pasportlarning transformatsiya asosi bo'lishi, subschyotlarning transformatsiyani yengillashtirishi) tizim samarasini alohida yechimlar yig'indisidan yuqori qiladi; to'rtinchidan, integratsion samara miqdoran sezilarli — tuzatishlar va muddatning bir necha barobar qisqarishi (shartli bahoda 38 tadan 11 tagacha va 20 kundan 6 kungacha); beshinchidan, to'rt bosqichli sinxron joriy etish tartibi tizimni amaliyotga tatbiq etishga tayyor qiladi.

Takliflar: soha korxonalariga — tizimni hisob siyosati darajasida, to'rt bosqichli tartibda, bloklarni sinxron joriy etish; “O'zbektelekom” AKda to'liq pilot aprotatsiyani o'tkazib, natijalarni soha bo'ylab yoyish; tarmoq birlashmalari va tartibga soluvchi organlarga — subschyotlar nomenklaturasi, taqsimlash bazalari, pasport va ish varag'i shakllarini soha uslubiy tavsiyalari sifatida rasmiylashtirish. Kelgusi tadqiqot yo'nalishi: yaratilgan axborot poydevoriga tayanuvchi moliyaviy natijalar auditining sohaga moslashtirilgan metodologiyasini — xatar xaritasi, kesimli analitika va raqamli vositalar bilan — ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avlokulov, A.Z. (2019) Moliyaviy natijalar hisobi va auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
2. Bathla, S., Sharma, A.K. and Kandpal, V. (2023) 'Stakeholders response to IFRS adoption/convergence on accounting quality and disclosures: A bibliometric review of Scopus database', *Heliyon*, 9(12), e23912.
3. Boujelben, S. and Kobbi-Fakhfakh, S. (2020) 'Compliance with IFRS 15 mandatory disclosures: an exploratory study in telecom and construction sectors', *Journal of Financial Reporting and Accounting*, 18(4), pp. 707–728.
4. IFRS Foundation (2018) *Conceptual Framework for Financial Reporting*. London: IFRS Foundation.
5. Kabir, H. and Su, L. (2022) 'How did IFRS 15 affect the revenue recognition practices and financial statements of firms? Evidence from Australia and New Zealand', *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 49, 100507.
6. Karimov, A.A., Kurbanbayev, J.E., Jumanazarov, S.A. and Halilov, Sh.A. (2018) *Moliyaviy hisob va hisobot*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
7. Khersiat, O.M. (2021) 'Impact of the Application of IFRS 15 on the Profitability of Jordanian Telecom Companies (Case Study: Jordan Orange Telecom)', *International Journal of Financial Research*, 12, pp. 308–317.
8. Kobbi-Fakhfakh, S. and Boujelben, S. (2021) 'The Effects of IFRS 15 Mandatory Adoption on Financial Statements', *IUP Journal of Accounting Research & Audit Practices*, 20(3), pp. 7–32.
9. Lee, W.J. and Choi, S.U. (2024) 'The effect of the new revenue recognition principle (IFRS 15) on financial statement comparability: Evidence from Korea', *Journal of International Accounting, Auditing and Taxation*, 54, 100601.
10. Milliy statistika qo'mitasi (2026) *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi ko'rsatkichlari*. Mavjud: <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 11.07.2026).
11. Onie, S., Ma, L., Spiropoulos, H. and Wells, P. (2023) 'An evaluation of the impacts of the adoption of IFRS 15 Revenue from Contracts with Customers', *Accounting & Finance*, 63(S1), pp. 953–973.
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2002) 21-son BHMS «Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va unis qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» // URL: <https://lex.uz/docs/-7282737>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi “Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.09.2025-yildagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-282-son qarori // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7728924>
15. Tulaxodjayeva, M.M., Ilxomov, Sh.I., Ahmadjonov, K.B. va boshq. (2018) *Audit*. Toshkent: TDIU.
16. Дусмуратов, Р.Д., Ризаев, Н.К. ва Назаров, Х.Х. (2020) *Молиявий ҳисобот ва аудитнинг халқаро стандартлари*. Тошкент: Иқтисод-молия.
17. Лилеева, Л.Р. (2007) *Бухгалтерский учет в сфере связи и телекоммуникаций: автореф. дис. ... к.э.н.* Москва.
18. Уралов, А. (2026) 'Хизмат кўрсатиш тармоқлари корхоналари қийматини баҳолаш ва бошқариш хусусиятлари', *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 4(6), 178–186-6. Mavjud: <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/4502>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100